

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI

(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN

QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSh VA YeVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'uchiyeva Dilnoza

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) 12-19

Норов Шухрат

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ

МОЛОДЕЖИ 20-25

Bazarbayeva Nilufar

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI

TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Кайыбеков Парахат

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫМИ ТРАНСПОРТНЫМИ

УСЛУГАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ 35-41

Ibragimov Jakhongir

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM

O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER

CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feruza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'IY INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Таджибаева Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК..... 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ..... 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbonov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH..... 105-107

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

Ichki ishlar vazirligi Jizzax Akademik litseyi

Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida tarix fani o'qituvchisi

Tel: +998905154872

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek milliy hunarmandchiligining qadim tarixi haqida so'z yuritilib, avvalo, kasb-hunarning insoniyat va jamiyat hayotidagi o'rni haqida, buyuk sharq va g'arb mutafakkirlarining bu masaladagi fikrlari tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillikdan to hozirgi kunga qadar O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishga oid islohotlar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Hunarmandchilik, hunar, kasb, misgarlik, zargarlik, chilangarlik, kulolchilik, suvoqchilik, to'qimachilik, kasanachilik.

ABOUT THE HISTORY OF UZBEKISTAN NATIONAL CRAFTS

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

Jizzakh Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs

Legal and Social and Humanitarian Sciences Department, History Teacher

Annotation. This article discusses the ancient history of Uzbek national crafts, first of all, the role of crafts in the life of humanity and society, the views of great Eastern and Western thinkers on this issue are analyzed. It also covers reforms related to the development of crafts in Uzbekistan from independence to the present day.

Key words: handicraft, trade, profession, coppersmithing, jewelry, locksmithing, pottery, plastering, weaving, homemaking.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-05>

O'zbek xalqi boy va ulkan tarixga ega bo'lib, bular haqida shu kungacha saqlanib qolgan, o'z ko'rki, fayzini, mahobatini yo'qotmagan asori-atiqalarimiz hamda qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, me'morchilik, hunarmandchilik madaniyati namunalari yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Ota-bobolarimizning hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ma'naviy, ilmiy qarashlarini o'zida aks ettirgan bu merosdan oqilona foydalanish davri keldi.

O'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi-san'at va madaniyat merosidir. Bu hunar turlari xalqimizning hayot tarzini, dunyoqarashini, estetik didini, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatini yaqqol ifodalaydi. O'zbek hunarmandchiligi asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, takomillashib kelgan. Bu san'at turi nafaqat uy-ro'zg'or ehtiyojlarini ta'minlab kelgan, balki milliy o'zlik, urf-odat va qadriyatlarimizni asrashda ham muhim o'rin tutgan. Jumladan, birgina kasb-hunar ta'limining maqsadi ham yangi avlod mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan, ular yuqori umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy istiqbolli hayotga tez moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur.

Hozirgi kunda yangi turdagi o'quv muassasalari hisoblangan kasb-hunar maktablarida ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, jismoniy va aqliy sog'lom kichik mutaxassislar tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida yoshlarning kasb-hunar ta'lim va tarbiyasiga juda katta e'tibor berib, ular hunar o'rganishning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotga erishish bilan chambarchas bog'liq deb bilib, unga ta'lim va tarbiyaning zaruriy va majburiy tarkibiy qismi sifatida yondashganlar. Xalqning

ma'naviy ruhiy mustahkamlash, rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning hal qiladigan muhim vazifasidir.

IX – XV asrlar Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyati rivojida muhim davr hisoblanadi. Sharq allomalarining ta'lim –tarbiyaga, kasb-hunarga oid qarashlarida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadi. Buning asosiy sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

Sharq Renessansi deb nomlangan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo'nalishi birinchisi: inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko'zi bilan egallanadi, ikkinchisi: bu fanlar inson tomonidan boshqa kishilardan taqlid qilib o'rganiladi, ular asosida sharoit qonunlari yotadi;

— ma'naviy-ma'rifiy qadriyat darajasiga ko'tarilgan xalq hunarmandchiligi san'ati va mehnat qadriyatlari, kulollik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, o'ymakorlik, badiiy-estetik qadriyatlar musiqa, xattotlik va tarjimonlik rivojlanadi;

— muhim madaniy qadriyat hisoblangan madaniy-ma'rifiy muassasalar (masjid, madrasa. Xonaqoh, maqbara va boshqalar), tarixiy obidalar qurishga, xalqini ma'naviy saviyasini oshirishga e'tibor kuchaytirildi;

Buyuk olimlar va fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va o'zaro ta'sir natijasida sharq ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy va milliy asoslari ishlab chiqildi.

Bu davrda Sharq mutafakkirlarining ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarni maydonga kelishida, vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Abdulhamid ibn Turk al Huttaliy (IX), Abdul Abbos Ahmad al-Farg'oniy (797-865), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX), Abu Nasr Farobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048) va boshqalarning xizmatlari katta bo'ladi. Inson axloqi aqlga, xulq va xatti-harakati esa ilm-fanni o'rganishga va ma'rifatga asoslangandagina ma'naviy kamolotga, kasbiy madaniyatlilikka erishadi. Mutafakkir allomalarning fikricha, insonparvarlik g'oyalarining amalga oshishi, ma'naviy barkamollikka, kasbiy madaniyatlilikka erishuv chuqur bilim olishga va ma'rifatli bo'lishga bog'liqdir. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug'ladilar, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallashga chaqirdilar, ilmning inson ma'naviy hayotida tutgan o'rnini yuksak baholadilar.

Farobiy o'zining “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”, “Falsafiy o'zgarishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida”, “Ilmlar va san'atlar fazilati” kabi ko'plab risolalarda insonning ma'naviy rivojlanish ilm-ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlagan.[1]

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning muhim manbai ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odamning taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha ahloqsizliklardan uzoqdir. “Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir”.[2]

Al Xorazmiy esa insoning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Amalda qo'llanmaydigan bilim insonni ma'naviy g'ofillikka olib keladi. Ilmga amal qilmagan odamlar nodondir. Ilmsiz odam boylikka, mansabga, har xil tubanlikka moyil, uning qadr-qimmati jamiyatga, insonlarga keltirgan foydasi bilan belgilanadi. Yusuf Xos Hojibning inson aqli, bilimi haqidagi ilmiy-falsafiy mulohazasi mazmunida barcha ezgu ishlarning asosi ilmda ekanligi haqida g'oya asosiy o'rinda turadi.

Komil Xorazmiy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida insonning oliy maqsadga erishishi, adolatli jamiyat qurishi uchun ma'naviy qadriyatlar vositasida, tafakkurni shakllantirish, mantiqiy fikrlarni rivojlantirish, kasbiy madaniyatni shakllantirish lozim. Mantiqiy fikrlarni rivojlantirish inson faoliyatida aql-idrokka, tafakkur quvvatiga tayanib ish ko'rmog'i lozim.

Amir Temurning o'z farzandlari-yu, nabiralari qilgan o'gitlari va yo'l- yo'riqlariga umrbod qat'iy amal qilgan.[3]

Ibn Sino fikricha "har bir insonga moyilligidan va iste'dodidan kelib chiqqan holda ta'lim bermoq lozim. Aks holda ta'lim va tarbiya ko'zlagan natijalarni bermaydi. Murabbiy insonning ta'limiga, biror-bir hunar va san'atga bo'lgan intilishini aniqlash lozim, chunki ularga ega bo'lgandan so'ng, u o'zini yashashi uchun zarur vositalar bilan ta'minlay oladi".

Olim va mutafakkirlarning fikriga ko'ra, bola ta'lim-tarbiyasi ilk yoshlik chog'idan boshlanishi, bu yoshda ilm-fan va hunar asoslari juda tez o'zlashtirish bilan belgilanadi.

Buyuk allomalarning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari ta'lim-tarbiyaga, kasb -hunarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadi. Buning asosiy sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

Markaziy Osiyo va jahon madaniyatining yuqori darajada yuksalishiga, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Donish, Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy, Suqrot, Yan Amas Komenskiy, Jon-Jak Russo va boshqalarning xizmatlari kattadir. Demak, bu davr o'zining har tomonlama yuksakligi, yaratilgan boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari, jahonga mashhur allomalarning yetishib chiqqanligi bilan qimmatlidir.

Kishilik jamiyati shakllanganidan buyon insonlar o'zlarining hayotiy mehnat tajribalarini yosh avlodiga o'rgatib keladi. Qulay yashash uchun boshpanalar tayyorlash, tosh, suyak, bronza (jezdan) keyinchalik esa, temir (po'lat) dan turli xil mehnat qurollari, moslamalari tayyorlash, chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi ham turli maqsadli faoliyatlarning, ya'ni, kasb-hunarlarining taraqqiy etishiga sabab bo'ladi. Kichik qabilalarining kengayib, yirik xalqlarga, elatlarga aylanishi, mayda davlatlarning turli hududlar uchun qo'shni mamlakatlarga hujum qilishlari urush harakatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Urush harakatlarida esa hujum va himoya qurollari, moslamalari, qurilmalari, jang qurollarining, askarlar va lashkarboshilarning kiyimlari, jihozlarining ko'plab tayyorlanishiga va qo'llanishiga xilma-xil ehtiyojlarni keltirib chiqardi.

Tarixning ko'hna zarvaraqlarida turli mehnat qurollari, urush anjomlari, hujum va himoya jihozlarini mohir hunarmandlar, kasb-hunarlar sulolalari vakillari tayyorlaganlar. Xalq hunarmandchiligining hozirda 150-180 xildan ziyod turlari saqlanib qolgan va rivojlanayotgan bo'lsa-da, sovutchilik, na'lhilik, rixtagarlik kabi turlari deyarli yo'qolib bormoqda. Hunarmandchilikning kulolchilik, temirchilik, sandiqsozlik, beshikchilik, turli xil milliy matolar (beqasam, adras, atlas va boshqa) to'quvchilik, pichoqchilik, ko'nchilik, kashtachilik, zardo'zlik kabi ko'plab sohaları uzoq davrlardan buyon rivojlanib kelgan va hozirda ham taraqqiy etmoqda. Ushbu hunarlarning rivojlanishida ustoz-shogirdlik tizimining o'rni, ahamiyati katta bo'lib, bu tizim asrlar davomida shakllangan va rivojlangan. Ustoz hunarmand o'z tajribalarini, hunarlar sir-asrorlarini nisbatan uzoq vaqt mobaynida (10-14 yil) shogirdlariga o'rgatib borganlar, bu ishda ularga tajribali shogirdlari-xalfalar yordam berganlar.

Mamlakatimiz mustaqilligi yillarida ro'y bergan muhim o'zgarishlardan biri ma'naviy yangilanish kishilar ongi, tafakkuri va dunyoqarashining boyligi, kengayib borayotganligi

hamda erkinlik kasb etayotganidir. Xususan yoshlarimizning el-u yurt, xalq, millat va vatan manfaatlarini anglash, uning shon-shavkatini yanada oshirish, ilm-u fani va madaniyati hamda san'atini gullab yashnatish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, o'tmishni, ajdodlarning boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini ta'lim muassasalarida o'rganish, munosib baholash borasidagi faoliyatlari muayyan darajada kishini quvontiradi. Zero, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy, ma'naviy taraqqiyoti qanchalar ilgarilab boraversa, navqiron avlodlarimiz tarbiyasiga bo'lgan ehtiyoj zaruriyat ham shunchalik ortib, kuchayib va kengayib boraveradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-sonli "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", [4] 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-sonli "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4797-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 28-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-son Farmoni,[5] 2021-yil 30-dekabrda "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son, [6] 2022-yil 21-apreldagi "Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-214-son qarorlari[7] va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan. Hozirgi kunga qadar, mazkur qabul qilingan qarorlarning amaldagi ijrosi ta'minlab borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy hunarmandchiligi – bu millatimizning faxri, xalqimizning iste'dodi va mahoratini ifodalovchi bebaho boylikdir. Uni o'rganish, qadrlash va keyingi avlodlarga yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir. Chunki milliy hunar — bu faqat mehnat emas, balki yurakdan kelgan ijod, milliy o'zlik va tariximizning tirik guvohidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, 1993. – 224 b.
2. Abu Rayxon Beruniy. Mineralogiya. – Toshkent, 1968. – 68 b.
3. Temur tuzuklari / A. Sog'uniy tarjimasini. – Toshkent, 1996. – 344 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3416134>
5. 2019-yil 28-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-son. <https://lex.uz/docs/-4622088>
6. 2021-yil 30-dekabrda "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son. <https://lex.uz/docs/-5807559>
7. 2022-yil 21-apreldagi «Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-214-son qarorlari. <https://lex.uz/uz/docs/-5973565>

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.